

SHAXSDA ALTURISTIK XULQ-ATVOR
RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK OMILLARI

ADPI "Pedagogika va Psixologiya" yo'nalishi
4- bosqich talabasi - Akbarova Dilafruz

Annotatsiya. Mazkur maqolada shaxsda alturistik xulq-atvorning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilingan. Shu bilan birga, insonparvarlik, empatiya, hamdardlik kabi ijtimoiy-psixologik fazilatlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari shaxsning individual va ijtimoiy rivojlanishida alturistik xulq-atvor muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Shaxslarda alturistik xulq-atvorni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar hamda psixologik yondashuvlarni ilgari suradi.

Kalit so'zlar: alturizm, shaxs, psixologik omillar, empatiya, ijtimoiy xulq-atvor, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье проанализированы психологические факторы, влияющие на формирование и развитие альтруистического поведения у личности. Также раскрыта роль таких социально-психологических качеств, как гуманизм, эмпатия и сочувствие в развитии общества. Результаты исследования подтверждают важную роль альтруистического поведения в индивидуальном и социальном развитии личности. В статье предложены практические рекомендации и психологические подходы к развитию альтруистического поведения у личности.

Ключевые слова: альтруизм, личность, психологические факторы, эмпатия, социальное поведение, развитие.

Abstract: This article analyzes the psychological factors influencing the formation and development of altruistic behavior in individuals. It also highlights the importance of social-psychological qualities such as humanism, empathy, and compassion in the progress of society. The research findings confirm that altruistic behavior plays a significant role in both individual and social development. The article presents practical recommendations and psychological approaches for fostering altruistic behavior in individuals.

Keywords: altruism, personality, psychological factors, empathy, social behavior, development.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv, axborot oqimining keskin ortishi va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi inson shaxsida insonparvarlik, o'zgalarga yordam berish, hamdardlik kabi xulq-atvor shakllarining ahamiyatini oshirmoqda. Shaxsda alturistik xulq-atvorni rivojlantirish nafaqat individual taraqqiyot, balki ijtimoiy muvozanat va

barqarorlikning kafolati sifatida ham e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasida ham mazkur yo'nalish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish va ma'naviy barkamolligini ta'minlash dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilangan.[1.3-b.] Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrda "Ma'naviyat va ma'rifat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4557-sonli qarorida ham fuqarolarning ma'naviy kamoloti va sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu yondashuvlar shaxsda ijtimoiy-axloqiy fazilatlarining, xususan, alturistik xulq-atvorning shakllanishini jadallashtirish zaruratini ko'rsatadi.[2.1-2-b.]

Adabiyotlar sharhi Alturizm — bu boshqa insonlarga yordam ko'rsatish, ularning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yish tamoyiliga asoslangan ijtimoiy xulq-atvor turi hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, alturistik xulq-atvor biologik, ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida shakllanadi[6.525–543-b.]. Masalan, D. Batson tomonidan ilgari surilgan "empatiya-alturizm" nazariyasiga ko'ra, boshqa odamning azob-uqubatiga empatiya qilish alturistik harakatga turtki bo'ladi.[4.88-b.] Shuningdek, J. Piagening ijtimoiy-rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola ijtimoiy muhitda axloqiy normalarni o'zlashtirib boradi va bu uning boshqalarga nisbatan mehr-oqibatli bo'lishini ta'minlaydi.[5.32-b.]

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotda psixologik kuzatuv, eksperiment, so'rovnomalar va test usullari qo'llanildi. Respondentlar sifatida 14-17 yoshdagi o'smirlar orasidan 120 nafar o'quvchi tanlab olindi. Ularning alturistik xulq-atvori, empatiya darajasi va ijtimoiy ong rivojlanishi Mehrabian va Epstein empatiya o'lchovi diagnostik testlar orqali o'lchandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, empatiya darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar alturistik harakatlarni ko'proq namoyon etadi. Ijtimoiy faol guruhlarda ishtirok etuvchi, ijobiy ijtimoiy muhitga ega o'smirlar boshqalarga yordam berishga moyilroqdir. Shuningdek, oilaviy munosabatlarda iliqlik va mehr-oqibat mavjud bo'lgan holatlarda alturistik xulq-atvor kuchliroq rivojlangan.

Muhokama. Alturistik xulq-atvor sog'lom jamiyatni qurishda muhim omil hisoblanadi. Ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi, Ko'ngillilik, xayriya va yordam tizimlarini rivojlantiradi, Psixologik salomatlikka ijobiy ta'sir qiladi (baxt hissi, hayotdan mamnunlik. Natijalar alturistik xulq-atvorning psixologik jihatdan shakllanishida empatiya, ijtimoiy o'zaro ta'sir, axloqiy qadriyatlar va shaxsiy tajribaning ahamiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Oila, maktab va jamiyatning bu boradagi roli beqiyosdir. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, alturizmga asoslangan tarbiya usullari orqali yosh avlodda insonparvarlik, ijtimoiy mas'uliyat, bag'rikenglik kabi fazilatlarini shakllantirish mumkin.

Xulosa. Shaxsda alturistik xulq-atvorni rivojlantirish ijtimoiy-psixologik muhit, empatik qobiliyatlar va shaxsiy qadriyatlar bilan bevosita bog‘liq. Yoshlarda ushbu fazilatlarni rivojlantirish uchun tizimli psixologik yondashuv va ijtimoiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o‘z navbatida jamiyatda sog‘lom ijtimoiy munosabatlar, barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qiladi.

Shaxsda alturistik xulq-atvorni rivojlantirishda muhim bo‘lgan tavsiyalar.

1. Ta’lim jarayonida alturizmga yo‘naltirilgan dasturlarni joriy etish – maktab va kollej darajasida o‘quvchilarda ijtimoiy mas’uliyat va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan sinf soatlari, ijtimoiy loyihalar va klublar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Oila muhitida mehr-oqibatli munosabatlarni rag‘batlantirish – ota-onalarga alturistik xulq-atvorni rivojlantirishda ularning o‘rni muhimligini tushuntirish maqsadida psixologik maslahatlar va treninglar tashkil etish zarur.

3. Ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy namunalarni targ‘ib qilish – yoshlar ko‘proq onlayn axborot manbalaridan foydalanayotganligi sababli, bloglar, videoroliklar va postlar orqali alturistik xulq-atvorni targ‘ib etish samarali bo‘ladi.

4. Psixologik xizmatlarni kengaytirish – maktab va o‘quv yurtlarida psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini mustahkamlash, shuningdek, alturizm va empatiya bilan bog‘liq diagnostika va rivojlantirish dasturlarini amaliyotga joriy etish lozim.

5. Ilmiy-tadqiqot ishlarini davom ettirish – alturistik xulq-atvorning yosh, jins, madaniy muhit va boshqa omillar bilan bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar olib borilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-160-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-dekabrdagi “Ma’naviyat va ma’rifat tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4557-sonli qaror.
3. Eisenberg, N., & Mussen, P. H. (1989). *The roots of prosocial behavior in children*. Cambridge University Press
4. Batson, C. D. (1991). *The altruism question: Toward a social-psychological answer*. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
5. Piaget, J. (1932). *The Moral Judgment of the Child*. London: Routledge & Kegan Paul.
6. Mehrabian, A., & Epstein, N. (1972). A measure of emotional empathy. *Journal of Personality*, 40(4), 525–543.
7. APA M.D. Abdulmadjidova (2024). *ILK O‘SPIRINLIK DAVRIDAGI O‘QUVCHILARNI PSIXOTIPLARIGA QARAB KASBGA YO‘NALTIRISH*

ISHLARINI OLIB BORISH NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI. *Inter education & global study*, (10), 412-418.

8. Abdulmadjidova, M., & Sattarova, I. M. (2021). O'smirlar o'rtasidagi nizoli vaziyatlarni bartaraf etishda hamkorlik masalalari. *Science and Education*, 2(12), 602-608.
9. Sattarova, I. M., & Abdulmadjidova, M. (2021). Ta'lim Jarayoni Samaradorligini Oshirishda O 'Yinli Texnologiyalardan Foydalanish Pedagogik Zaruriyat Sifatida. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 1(6), 5-